

LISHAYNIKLARNING TUZILISHI VA AHAMIYATI

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tabiy fanlar fakulteti Biologiya 2-kurs talabalari

Butayev Omadbek Ne'matjon o'g'li

Muhammadjonova Muxtasar Alisher qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolani yozish mobaynida liyashniklarning tarkibini, ularning tarqalishini, eng asosiysi esa ularning sanoatda, qishloq xo'jaligida, oziq-ovqat sanoatida va tibbiyotda keng foydalanishini bilib oldik. Bundan tashqari ularning ahamiyatda biogetsenozda ham seziladi ya'ni ular indicator vaziasini bajaradi.

Kalit so'lar: Lichenes, sianobakteriyalar, simbiotik munosabatlar, substrat, tallom, biogeocenosis.

Abstract: While writing this article, we learned the composition of lichens, their distribution, and most importantly, their wide use in industry, agriculture, food industry and medicine. In addition, their importance is felt in biogeocenosis, they act as indicator.

Key words: Lichens, cyanobacteria, symbiotic relationship, substrate, thallus, biogeocenosis.

Kirish: Lishayniklar (lotinch: lichenes) zamburug'lar va suvo'tlari yoki sianobakteriyalarning simbiotik majmualari bo'lmish organizmlardir. Biroq lishayniklar morfologiyasi, fiziologiyasi va biokimyosi zamburug'lar va suvo'tlaridan farq qiladi. Lishayniklar tarqalishi areali nihoyatda xilma-xil, ukar atrof-muhit o'zgarishiga sezgirdir. Lishayniklardan bo'yoq, atir-upa ishlab chiqarishda hamda tabobatda foydalilanadi. Lishayniklar - ildiz, barg, va gullari bo'lmanan o'simlik. Shunday bo'lsa-da, ba'zilari juda jozibali ko'rinishga ega. Lishayniklarning rangi turlich - och kulrang yoki qishdan och yashilgacha bo'ladi. Lishayniklar sayyoramizning deyarli barcha joyida o'sadi va ularning 26000 yaqin turi mavjud. Ularni quyosh jizg'anak qiladigan cho'llarda ham, Antarktidaning yalag'och qoyalarida ham topish mumkin. Lishayniklar tashlandiq yer, tosh, unumsiz tuproq, nobud bo'lgan daraxt, daraxt qobig'i kabi har qanday sharoitda

yashashga moslasha oladi. Ular na issiq, na sovuq, na namlik, na quruq iqlimdan qo‘rqadi. Lishayniklar hamma materiklarda uchraydi.

Tropik va subtropik mintaqalarda, ayniqsa tundra va baland tog‘larda keng tarqalgan. Ular uchramaydigan yagona joy bu – shaharlar:zararli chang, zavod quvurlaridan buruqsagan tutun va shahar hayoti ular uchun halokatli hisoblanadi. Lishayniklar turli substraktlarda o‘sadi va u yerlarda asta sekin organik moddalar to‘planib, yuqori o‘simliklarning o‘sishiga zamin yaratdi. Ko‘pchilikga noma’lum, murakkab simbiotik organizmlarning o‘ziga xos guruhi qishloq xo‘jaligida, oziq-ovqat, kimyo, farmatseftika, parfumeriya sanoatida, atrof-muhitning ekologik parametrlarini baholashda, ushbu guruh organizmlarining biogenotsenotik ahamiyati alohida o‘rin tutadi. Ular tuproq hosil qiluvchi faktor hisoblanadi, chunki uning faoliyati natijasida paydo bo‘ladigan kislota har qanday toshlarni va tog‘jinslarini nuratadi. Ya’ni lishayniklar ularning maydalanib tuproqqa aylanishiga sabab bo‘ladi.

Lishayniklarning po‘stloqsimon, bargsimon va butasimon shakllari bo‘ladi. Po‘stloqsimon lishaynik sodda tuzilgan donador, guborsimon yoki po‘stloq shakllarida bo‘ladi. Bargsimon lishayniklar bir mucha murakkab tuzilgan, shoxlari osilib tushgan yoki tik o‘sadigan o‘simlik tupini eslatadi. Lishaynikning suv shimagidan maxsus organi bo‘lmaydi, suvni ular tallomining butun yuzasi orqali shimadi. Suvo‘tlaridagi fotosintez tezligi lishaynik tallomidagi suvning miqdoriga bog‘liq. Lishaynik qurib qolsa, fotosintez sekinlashadi yoki to‘xtaydi. Po‘stloqsimon Lishaynik butasimon lishaynikga nisbatan sekin o‘sadi. Lishaynik yiliga o‘rtacha 0,001mm da 100mm gacha o‘sadi. Haroratning ko‘tarilishi yoki pasayishi lishaynikga uncha ta’sir qilamaydi. Lishaynik yaxshi yoritilgan turli xil substratlarda – daraxtlar, tog‘ jinslari, tuproq va yashil o‘simliklar barglarida, teri, suyak, qog‘oz, shisha, temir va boshqa buyumlar sirtida uchraydi. Lishayniklarning ko‘payishi jinsiy, jinsiz va vegetativ usulda amalga oshadi. Jinssiz ko‘payishda konidayalar va piknosporalar vujudga keladi. Zamburug‘sporalari o‘sadi va o‘ziga mos suvo‘ti bilan birlashib yangi lishaynik tallomini – vegetativ tana hosil qiladi. Lishaynik tallomining kichik qismi orqali vegetativ ko‘payadi. Lishaynikdagi suvo‘tlari bo‘linib, yashil suvo‘tlari esa avtosporalar hosil qilib ko‘payadi. Jinssiz ko‘payishda lishaynik tanasidagi suvo‘tlar va zamburug‘lar alohida alohida ko‘payadi. Lishayniklarning u yoki bu biogetsenoz florasideagi ahamiyati liyashnik koeffitsienti bilan belgilanadi, bu esa lishaynik turlari sonining

yuksak o'simliklar turlari soniga munosabatini bildiradi. Bu koeffitsienti qanchalik yuqori bo'lsa, ma'lum bir hududda lishaynikla shunchalik yuqori ahamyat kasb etadi. Lishaynikning tarqalishi chegaralari bir qator sabablarga, shu jumladan, havoning ifloslanishi darajsiga ham bog'liq. Shunga ko'ra ular havo tozaligini ko'rtasatuvchi indicator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Oziq-ovqatda ishlatiladigan lishaynik Manna lishaynigi ham kiradi. Undan tashqari uy hayvonlariga ham lishaynikdan oziq sifatida foydalanish mumkin. Ularning tallomi erkin, mayda, sharsimon bo'laklardan iborat bo'lib, havo quruq vaqtarda shamol bilan uchib bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib o'tadi va tarqalib, yer betini bosadi. Uning qalinligi ba'zi chuqur yerlarda 10-15 smga yetadi. Bu lishaynik meditsinada ham ishlatiladi. Bunday lishayniklarga parmeliya va peltigeruyalar ham kiradi. Lishayniklardan iqtisodiy foydalanishning yana bir soxasi farmatsevtika. U yuqori molekulyar og'irlikdagi organic birikmalar lishayniklarning tallom tarkibi – “lishaynik kislatasi” taxminan 230 da ortiq bakteriostatik va antibacterial xususiyatlariga ega. Usnat natriy infeksiyalanaganyaralarni, tropic yaralarni, kuyishlarni davolashda tashqi tomondan ishlatiladi. Lishaynikning kladoniya va setrariya turlaridan 80 – 86% spirt olish mumkin. O'rta dengizga yaqin Azor va Kanar orollarida ko'p tarqalgan lishayniklarning Rochchela turlaridan lakkus va orseyl bo'yoqlari olinadi. Lakkus olish uchun lisayniklar maydalani suvga qoriladi va unga ozroq ammiak qo'shiladi. Bu qorishma maxsus bakteriyalar vositasi bilan achiydi, achigan qorishma to'q-qizil rangda bo'ladi. Agar unga ishqor qo'shilsa, ko'k rangga kiradi. Rossiyada lakkus tayyorlash uchun tundrada ko'p tarqalgan oxrolexia tartarea lishaynigidan foydalaniladi. Lishayniklar orasida zaharli turlari ham bor. Shimolda o'suvchi lateriya vulpine degan zaharli lishaynikni, ovchilar bo'rilarni zaharlashda ishlatiladi. Lishayniklar odamga deyarli hech qanday zarar keltirmaydi. Ular daraxt po'stloqlarida yashab, uning hisobiga oziqlanadi, ammo daraxtning tirik to'qimalariga zarar yetkazmaydi. Lekin ular daraxtlardagi yasmiqchalarning sirtini bir muncha berkitib qo'yadi, buning natijasida daraxt tanasida tanasida havo almashinuvi biroz og'irlashadi.

XULOSA: Lishayniklar tabiatda keng tarqalgan o'simlar bo'lib, ular sanoat, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, parfumeriya, atir-upa sanoati, iqtisodiyot va kimyo sanaotida keng tarqalgan. Lishayniklar hamma qitalarda tarqalgan bo'lib deyarli hamma joyda uchratish mumkin. Lishayniklar har qanday sharoitda yashashga moslashgan. Ularni Antarktidada ham uchratish mumkin. Ular uchramaydigan



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**

VOLUME 1, ISSUE 8, 2023. NOVEMBER

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

yagona joy esa shaharlar hisoblanadi. Lishayniklar bo‘yoq olishda ham ishalatiladi. Lishayniklar oziq-ovqat sifatida istemol qilinadi. Lishaynik foydali o‘simlik sarasiga kiradi ulardan oqilona foydalanishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.Sulaymonov, X.Q.Haydarov, M.A.Hasanov, X.H.Jalolov, A.Q.Axmedov, Y.SH.Toshpolatov, Botanika fanidan qo‘llanma.
2. A.C.Yuldashev, SH.J.Tojiboyev, A.A.Imirsinova, M.U.Tojiboyev. Geobotanika asoslari.
3. C.M.Mustafayev, O.A.Axmedov, M.S.Mustafayeva, M.T.Yulchiyeva. Batanika Toshkent-2012.
4. “QOMUS.INFO” onlayn ensiklopediya

**Research Science and
Innovation House**